

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA O'ZBEKISTON SSRNING MARKAZIY VA JANUBIY VILOYATLARIDA QISHLOQ XO'JALIGINING AHVOLI VA OLIB BORILGAN ISLOHOTLAR

Ibodov Behzod Yuldashevich

O'zbekiston Milliy Universiteti

Tarix fakulteti magistranti

Ikkinchı jahon urushi tugaganidan so‘ng O‘zbekistonning markaziy va janubiy viloyatlarida qishloq xo‘jaligi jadal qayta tiklanish jarayoniga kirishdi. Ushbu hududlar dehqonchilik va irrigatsiya tizimlari bilan tanilgan bo‘lib, tarixiy davrlardan beri paxtachilik va g‘allachilik markazi sifatida rivojlangan. Urush davridagi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolar esa qishloq xo‘jaligiga jiddiy ta’sir o‘tkazgan, bu esa yangi chorlovlarga olib keldi. Urush yillarida ishchi kuchlarining frontga jalb qilinishi sabab bo‘shab qolgan yerlar, ishlab chiqarishning pasayishi va irrigatsiya tizimlarining yo‘q qilinishi bilan bog‘liq muammolar qayta tiklanish jarayonining asosiy to‘sig‘i bo‘lgan.

Ushbu hududlarda paxtachilik asosiy o‘rin tutib, u sovet ittifoqi iqtisodiy siyosatining markaziy qismi hisoblangan. 1945-yilda O‘zbekiston paxta yetishtirishini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy qishloq xo‘jaligini qayta tiklashga qaratilgan edi. Paxta yetishtirishni yanada ko‘paytirish maqsadida qishloq xo‘jalik ishlari faollashtirildi, yangi irrigatsiya loyihalari boshlandi, va sug‘oriladigan yerlar kengaytirildi. Bu hududlarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun texnika va texnologiyalarni joriy etishga katta e’tibor berildi. Biroq, sug‘orish tizimlari va irrigatsiya ishlarining yaxshi tashkil etilmaganligi, agrotexnika me’yorlariga rioya qilinmasligi oqibatida yerlarning sho‘rlanishi va dehqonchilik madaniyatining pasayishi kabi muammolar avj oldi.

O‘zbekiston yillar davomida paxtachilikni rivojlantirish bo‘yicha berilgan ko‘rsatmalar va topshiriqlarni muntazam ravishda bajarib kelgan. 1952-yilda O‘zbekiston paxtakorlari 400 ming tonnadan ortiq paxta yetishtirish to‘g‘risida Stalinga "va'da" berdilar. Bu vazifani bajarish uchun paxtani qabul qilish va tozalash bo‘yicha puxta tayyorgarlik ishlari olib borilishi, xususan, paxta punktlaridagi omborlar, maydonlar, kontoralar va laboratoriylar o‘z vaqtida ta’mirlanishi kerak edi. 1952-yildagi rejaga muvofiq, 240 ming kubometr hajmda paxta omborlari va chigit saqlanadigan joylar qurilishi, 70 ming kvadrat metr maydon paxtani g‘aramlash uchun asfaltlanishi va tosh yotqizilishi, shuningdek, paxta

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 10, Oktabr 2024

zavodlari va tayyorlash punktlaridagi 150 ming kvadrat metr maydonga tosh yotqizilishi belgilangan edi. Paxta punktlarida og‘ir ishlarni mexanizatsiya qilish va elektrlashtirish ishlari ham 1952-yil davomida amalga oshirilishi rejalshtirilgan bo‘lib, paxta zavodlarini kapital ta’mirlash ishlari 15-avgustgacha to‘liq yakunlanishi belgilangan edi¹. 1953-yilda KPSS Markaziy Qo‘mitasining sentyabr plenumida paxta hosildorligini oshirishga qaratilgan muhim masalalar ko‘rib chiqildi. Unda bo‘s sh yotgan yerlarni o‘zlashtirish, yangi sug‘oriladigan maydonlarni yaratish va yernarning meliorativ holatini yaxshilash orqali ekin ekiladigan maydonlarni kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi. Bu qarorga muvofiq, yerlarning sug‘orish imkoniyatlarini oshirish va yangi sug‘oriladigan maydonlarni ishga tushirish zarurligi belgilandi. 1954-yilning 4-fevral sanasida qabul qilingan “1954-1958-yillarda O‘zbekiston SSRda paxtachilikni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarorga ko‘ra, sug‘oriladigan maydonlarni 600 ming getktarga kengaytirish va paxta yetishtirish hududini 300 ming getktarga oshirish vazifalari qo‘yildi. Shuningdek, yernarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilab berildi².

1953 va 1954-yillarda qabul qilingan qarorlar O‘zbekistonda paxtachilikni yanada kengaytirishga va hosildorlikni oshirishga qaratilgan edi. Bu qarorlar asosida yangi sug‘oriladigan yerlarni o‘zlashtirish va yernarning meliorativ holatini yaxshilash kabi yirik loyihamalga oshirildi. Biroq, ushbu qarorlar miqdoriy ko‘rsatkichlarni oshirishga urg‘u bergen bo‘lsa-da, yernarning ekologik holatini e’tiborga olmaganligi, keyinchalik tabiiy resurslarning samarasiz foydalanishiga olib keldi.

1956-yil avgust va 1958-yil iyun oylarida KPSS Markaziy Qo‘mitasi va SSSR Ministrlar Soveti paxtachilikni rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston SSR, Qozog‘iston SSR va Tojikiston SSR hududlarida 300 ming hektar qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish vazifasini qo‘ydi. Bu keng ko‘lamli loyihamalga oshirish uchun “Glavgolodnosteppstroy” tashkilotiga asos solindi, keyinroq 1963-yilda bu tashkilot irrigatsiya va sovxozlarni barpo etish bo‘yicha “Glavsredazirsovxozistroy” va “Golodnosteppstroy” boshqarmalariga aylantirildi. Bu kabi choralar hukumatning paxtachilikka bo‘lgan katta umidlari va uni

¹ Носиров Ф. Пахтачилик саноатининг ишини янада яхшилайлик // Қизил Ўзбекистон. 1952 йил, 13 август.

² Игамбердиев Р.С., Раззаков А.А. История мелиорации в Узбекистане (на материалах Голодной степы). – Ташкент: Фан, 1978. – С.96.

strategik soha sifatida ko‘rishining natijasi edi. Biroq bu yirik loyihalar o‘z vaqtida bajarilgan bo‘lsa-da, kelajakda yerkarning ekologik holatini e’tiborsiz qoldirgan.

Samarqand-Qarshi iqtisodiy hududi ham o‘sha davrda asosan paxtachilikka ixtisoslashgan edi, garchi sabzavotchilik va subtropik mevalar yetishtirish ham mavjud bo‘lsada, asosiy e’tibor paxta yetishtirishga qaratilgandi. Qarshi dashtlari esa yuqori sifatli paxta yetishtirish uchun eng qulay hududlardan biri sifatida tan olingan bo‘lib, shu sababli yerkarni tezroq o‘zlashtirish va loyihalarni amalga oshirish zaruriyati paydo bo‘ldi. Bu yerdagi o‘zlashtirish ishlari paxtachilikning kelajagini ta’minlash maqsadida amalga oshirilgan bo‘lsa ham, keyinchalik yerkarning noto‘g‘ri meliorativ boshqaruvi tufayli ko‘plab muammolar yuzaga kelgan³.

1963-yilda “Qarhistroy” birlashmasi tashkil etildi. Bu loyiha doirasida Qarshi cho‘llarini o‘zlashtirish va u yerdagi bir million gektarga yaqin yerkarni sug‘orish ishlari amalga oshirildi. Sug‘orishni ta’minlash uchun 200 kilometr uzunlikdagi Qarshi magistral kanali qurildi va Tolimarjon hamda Sho‘rsoy suv omborlarini ta’mirlash ishlari olib borildi. Qarshi magistral kanali qurilishida uni asosiy va ishchi qismalarga ajratish orqali Amudaryodan suvlarni tashish maqsadida oltita kuchli nasos uskunalarini o‘rnatildi. Har biri 75 ming kilovatt quvvatga ega bo‘lgan oltita nasos stansiyasi ishga tushirildi, bu esa suvni uzlusiz ravishda ishchi qismga yetkazish imkonini yaratdi. Ushbu keng ko‘lamli loyiha Qarshi cho‘llarini o‘zlashtirish va sug‘orish imkoniyatlarini yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, u yerdarda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun muhim asos yaratdi⁴.

1972-yil mart oyida O‘zbekiston KP Markaziy Qo‘mitasi va O‘zbekiston SSR Ministrler Soveti “Qarshi magistral kanaliga suv chiqarishni tezlashtirish to‘g‘risida”gi qarorni qabul qildi. Bu qarorga asosan, 1974-yilga kelib o‘n minglab gektar yerkarni o‘zlashtirish imkonini beradigan 105 kilometrlik Ulyanov kanali qurilish ishlari boshlandi. Shuningdek, 1972-yilda partiya-xo‘jalik faollarining yig‘ilishida “Qarhistroy” boshqarmasi Qarshi cho‘llarini o‘zlashtirish bo‘yicha sotsialistik majburiyatni o‘z zimmasiga oldi⁵.

³ O‘z MA R-2312, 1-ro‘yhat, 6-yig‘ma jild, 57 varaq.

⁴ Гаипов Р. Воплощение в жизнь решений партии и правительства об освоении Каршинской степи // Коммунист Узбекистана. 1973. 6 июнь, – С.22.

⁵ Yuqoridagi asar, – С.24.

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 10, Oktabr 2024

O'zbekiston kolxoz va sovxoziyada qishloq xo'jalik mahsulotlarining, ayniqsa paxtaning sifatiga katta e'tibor qaratildi. Ayniqsa, ingichka tolali paxta yetishtirishga ustuvor ahamiyat berilib, bu masala 1966-1970-yillarga mo'ljallangan SSSR xalq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan besh yillik reja doirasida KPSS XXIII syezdining direktivalarida ham o'z ifodasini topdi⁶. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ingichka tolaniнg asosiy afzalligi uning yuqori sifatida edi. U uzun va pishiq bo'lib, yigirish jarayonida yaxshi chiyrilgan, ingichkaligi, egiluvchanligi, elastikligi va yaltirab turishi bilan boshqa tola turlaridan ajralib turgan. SSSR Yengil sanoat vazirligining Ip-gazlama sanoati bosh boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, ingichka tolali 5904-I va 8703-I navlaridan ishlab chiqarilgan gazlamalarning qiymati o'rtacha tolali 108-F navli paxtadan tayyorlangan gazlamalarga nisbatan ikki-uch barobar qimmatroq bo'lgan. Shuningdek, jahon bozorida ham bu tolaga talab yuqori bo'lib, undan nafis gazlamalar ishlangan. Biologik xususiyatlari tufayli ingichka tola har qanday sharoitda o'savermagan, balki yoz fasli uzoq davom etadigan, bulutsiz kunlar ko'p bo'lgan, quyosh radiatsiyasi kuchli va havosi quruq bo'lgan O'zbekistonning Surxondaryo, Qashqdaryo va Buxoro viloyatlarining ayrim tumanlarida yetishtirilgan.

Biroq, katta maydonlarga paxta ekish ishlari olib borilganiga qaramay, mehnatchilarning moddiy manfaatdorligi yetarli darajada ta'minlanmaganligi, shuningdek, rejalarни bajarishga bo'lgan qat'iy talablar ishchilar orasida loqaydlik va qishloq xo'jaligi rahbarlarining mas'uliyatsizligini kuchaytirib yubordi. Natijada ekilgan paxtaga o'z vaqtida qarash va parvarishlash ishlari sifatsiz tarzda bajarildi.

Paxta zavodlarida ishlab chiqarilgan mahsulot ham sifatsiz bo'lib chiqdi. 1952-yilning 8 oyi davomida standartga javob bermaydigan tola 18,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, yuqori sifatlari tola atigi 5,95 foiz bo'ldi, xolos (asl rejada bu ko'rsatkich 12,5 foiz bo'lishi kerak edi). Buning asosiy sababi – paxtani sortlarga ajratish ishlari va mashina bilan terilgan paxtani cho'p-xasdan to'liq tozalash vazifalarining yaxshi tashkil qilinmaganligida, shuningdek, sortlash va tozalash qoidalariga yetarli darajada rioya qilinmaganida edi⁷.

1959-yil 9-aprelda Samarqand iqtisodiy ma'muriy hududining Xalq xo'jaligi soveti tomonidan qabul qilingan "Samarqand sovnarxozining sanoat korxonalari, paxta zavodlari,

⁶ Коммунистическая партия Советского Союза в резолюциях съездов, конференций и пленумов ЦК. – Т.11. 1966-1070. – Москва. Изд. Полит.лит, 1986. – С. 394.

⁷ Зеккель С. Пахта тозалаш саноатининг ишини янада яхшилайлик // Кизил Ўзбекистон. 1953 йил, 9 январь.

paxta tayyorlash punktlari va boshqalardagi yong‘inga qarshi holatning qoniqarsizligi to‘g‘risida”gi qarorda, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Jizzax, Zirabuloq, Jomboy paxta zavodlari va paxta tayyorlash punktlarida yong‘in xavfsizligi holati qoniqarli emasligi ta’kidlangan. Ayniqsa, Jizzax, Jumin, Xatirchi, Po‘latchi, Kranogvardeysk, Keldon va Milyutin paxta tayyorlash punktlaridagi yong‘inga qarshi vaziyat juda achinarli bo‘lgan. 1959-yil 11-mart kuni Milyutin nomidagi paxta tayyorlash punktida yong‘in kelib chiqqan, bu esa yong‘in xavfsizligi bo‘yicha chora-tadbirlar yetarli darajada ta’milanmaganligidan dalolat beradi⁸.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning markaziy va janubiy viloyatlarida Ikkinchijiahon urushidan keyingi qishloq xo‘jaligi qayta tiklanish jarayonida qator yutuqlar bilan birga ko‘plab muammolarga duch keldi. Paxtachilikning haddan tashqari rivojlanishi va davlat tomonidan qo‘yilgan yuqori rejalarini bajarishga bo‘lgan intilish ishchi kuchi va texnik ta’minot yetishmasligi bilan bog‘liq qiyinchiliklarga olib keldi. Irrigatsiya tizimlarining yetarli darajada modernizatsiya qilinmasligi, yerlarning sho‘rlanishi va agrotexnik tadbirlarning sifatsiz tashkil qilinishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Shu bilan birga, rejalarining sun’iy ravishda oshirilishi va paxta monokulturasiga bog‘liq iqtisodiy siyosat mintaqqa iqtisodiy rivojlanishiga to‘siq bo‘ldi. Bu jarayonda qishloq xo‘jaligi rivojlanishidagi eng katta muammolardan biri paxtachilikka qattiq urg‘u berilgani sababli boshqa qishloq xo‘jalik tarmoqlarining rivojlanishi cheklanganidir. Hukumatning qishloq xo‘jaligidagi siyosatlari turli ijobiliy natijalar bergen bo‘lsa-da, umumiyl iqtisodiy rivojlanish samarali emas edi.

⁸ O‘z MA R - 2445, ro‘yhat 2, yig‘ma jild-26, 3-41 varaqlar.

Adabiyotlar:

1. Гаипов Р. Воплощение в жизнь решений партии и правительства об освоении Каршинской степи // Коммунист Узбекистана. 1973. 6 июнь, – С.22.
2. Зеккель С. Пахта тозалаш саноатининг ишини янада яхшилайлик // Қизил Ўзбекистон. 1953 йил, 9 январь.
3. Игамбердиев Р.С., Раззаков А.А. История мелиорации в Узбекистане (на материалах Голодной степы). – Ташкент: Фан, 1978. – С.96.
4. Коммунистическая партия Советского Союза в резолюциях съездов, конференций и пленумов ЦК. – Т.11. 1966-1070. – Москва. Изд. Полит.лит, 1986. – С. 394.
5. Носиров Ф. Пахтачилик саноатининг ишини янада яхшилайлик // Қизил Ўзбекистон. 1952 йил, 13 август.
6. O'z MA R - 2445, ro'yhat 2, yig'ma jild-26, 3-41 varaqlar.
7. O'z MA R-2312, 1-ro'yhat, 6-yig'ma jild, 57 varaq.